

FARZAND TARBIYASINING SHAKLLANISHIDA OTA-ONANING TUTGAN O'RNI

Xo'djabayeva Xurshida

Ajiniyoz nomidagi NDPI ning Boshlang'ich ta'lism fakulteti
Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi 2-g guruh talabasi

Annotatsiya: Bola tarbiyasida ota-onaning tutgan o'rni muhim bo'lib, ona bolasini tarbiyalashni homiladorlik vaqtida boshlashi kerak. Chaqaloq tug'ilganidan keyin uning, avvalo, gigiyenasiga, kiyim-kechagiga, emaklab yurishi, keyinchalik oyog'ini qanday bosishini kuzatishi, oyoq bosishida nuqson bo'lsa uni shifokorga ko'rsatishi, gapirish ohangi qanday ekanligi hamma hammasiga ota-onsa e'tibor berishi kerak. Bolani tog'ri gapirish va intizomli, tarbiyalı bo'lishi uchun ota-onsa bolasi bilan yoshlidan shug'ullanib borishi, farzand tarbiyasida muhim ro'l o'ynaydi. Ota-onsa farzandlari voyaga yetishi davrida ozgina e'tiborsiz qoldirishi ham ularning tarbiyasiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Tayanch iboralar: Ota-onaning vazifasi, bola tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, nutq odobi, murosasozlik, e'tiborsizlik, bolani jazolash, begonalashish

Oilada farzand tarbiyasini tashkil etish juda muhim ahamiyatga egadir. Bola dunyoga kelgandan boshlab, eng avvalo, ota-onasini ko'radi. Ular nimani o'rgatsa, nimani qilsa shuni ko'rib tarbiyalanadi. Shunga qarab ota-onaning oiladagi obro'si shakllanadi. Bolalar yoshlidan juda qiziquvchan va talabchan bo'ladilar. Ular 1 yosh atrofida endi gapirishni o'rgana boshlaganda ota-onasi ularga e'tiborli bo'lishi, aytishga qiynalgan so'zlariga yordam berishi kerak. 3-4 yoshga kelib bolalarda «u nima?» «bu nima?» kabi savollar va ko'p harakatchanlik kuzatiladi va ota-onalar bolalarining savollariga erinmasdan javob berishlari lozim. Bolalarni tarbiyalash ular dunyoga kelgan paytida emas, balki ona qornida paytida boshlanishi kerak. Ona o'z bolasining sog'lom va aqli inson bo'lishini istasa homiladorlik vaqtida og'ir narsalar ko'tarmasligi, tushkunlikka tushmasligi, haddan tashqari ko'p urush-janjal chiqarib asabiylashmasligi va shu kabi salbiy illatlardan uzoqroq bo'lib, ko'proq kitob o'qishlari kerak. Kitob o'qish insonni stress holatidan chiqaradi va bolaga ham yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Bolalar gapirishni endi o'rganayotganda ko'p so'zlarni ayta olmaydilar va qisqartirib gapiradilar. Ikki yoshgacha so'zlarni shu zaylda aytishlari mumkin, lekin ikki yoshdan so'ng ota-onsa bolasiga so'zlarni to'liq talaffuz qilishni o'rgatishi kerak. 3-4 yoshda bolalarda har xil savollar ko'paya boshlashi sababli, ota-onalar hamma vaqt ham savollariga javob bermaydilar va ba'zi paytlarda urushib yuborish holatlari ham kuzatiladi. Aslida, bu juda katta xato. Chunki yosh bolalar bu holatdan keyin qo'rqib, ota-onasidan biror narsa so'rashga ikkilanib, yana baqirib

yuborsa-chi, yoki urib qolsa nima bo'ladi degan xavotir paydo bo'ladi. Buning natijasida bola tortinchoq va qo'rroq bo'lib ulg'ayadi. Shu sababli ota-onha har bir xattiharakatini, gapirgan gapini nazorat qila bilishi kerak. Bu bolaning o'sish jarayonida juda katta ahamiyatga ega.

Tarbiyaning eng muhim ahamiyati nutq hisoblanadi. Bolanining yoshligidan to'g'ri va ravon gapirishi oila a'zolarining gapirish ohangiga bog'liq. Ota-onha oilasida qo'rs so'zlarni ishlatishi, mantiqsiz, bilib-bilmay gapirishi va buni bolalariga aytishi, sal narsaga urishib berishi ham bolaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida bolada qo'rquv paydo bo'ladi va gapirganda duduqlanib gapirishi ham mumkin. Aksar holatda bu ota-onaning bir-biriga bo'lgan yomon munosabatlari natijasida kelib chiqadi. Oilada ota-onha farzandlari oldida shirin so'z bo'lishi, bir-birini hurmat qilib gapirishi va qo'rs so'zlarni ishlatmasdan, samimiyligi, mehr-oqibatli va dilkash ko'rinishi, shuningdek odob-axloq qoidalariga bo'y singan holda ish tutishsa o'zlarini istagan natijaga erishadilar va yetarli darajada farzandlari oldida obro' qozonadilar.

Bolani yoshligidan mehnat qilishga o'rgatish ularni ham jismoniy tomondan tarbiyalaydi, ham jamiyatga foyda keltiradi. Ota-onha bolasiga kichkinaligidan boshlab og'ir bo'limgan yengilroq ishlarni bajartirishi, uylarni, hovlilarni tozalatishi, o'tlarni yulishni o'rgatishi va hech narsani uvol qilmaslikni, hamma yerni saranjom-sarishta, narsalarini toza tutishni miyasiga singdirib borishi kerak. Mehnat tarbiyasining asosiy vazifasi bolalarni psixologik va amaliy tarafdan tarbiyalashdir. Har bir bola mehnat qilmasdan moddiy boylik topa olmasliklarini tushunib yetishi kerak. Ota-onha bolalariga mehnat tarbiyasini singdirish orqali ularni yakka o'zlarini ishlashga va jamoa bo'lib ishslashga o'rgatadilar. Bundan tashqari kelajakda har xil mehnat turiga qiziqishlari ortadi va ongli ravishda o'zlariga yoqqan kasbni tanlay oladilar.

Ba'zi oila farzandlari juda tartibsiz bo'ladi. Ularni tarbiyalashda ota-onha ko'pincha jazolash usulidan foydalanadi, lekin bu usuldan foydalanish orqali ko'zlangan natijaga erishish qiyin va bu juda past samara beradi. Bundan keyin oila a'zolari orasida mehr-muhabbat, oqibat hissi biroz pasayadi va ularda uzoqlashish, begonalashish holatlari kuzatiladi. Ota-onha tamonidan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning jazolash usullari ko'pincha bolaning tinib-tinchimasligi, harakatchanligi, injiqligidan uni tinchlanirish maqsadida foydalaniladi. Lekin bolani yosh paytida haddan tashqari jazolash, urish ularning psixologiyasini buzadi. 3 yosh atrofidagi bolalar krizis davrini boshdan kechirayotgan bo'lishi mumkin. Bu davrda bolalar juda injiq, aytganini qildirib, so'zini o'tkazishga harakat qiladilar. Ular o'zlarini onasining bir qismi emas, shaxs sifatida qabul qila boshlaydilar va o'zlarining erkin fikrlari, xohishlari borligini tushunib yetadi, lekin bu davrda ular nimaning to'g'ri, nimaning noto'g'ri ekanligini bilmaydi va o'zlarini xohlagan narsaga erishish uchun jon-jahdi bilan harakat qiladi, yig'laydi, g'avg'o chiqaradi, o'z so'zini o'tkazish uchun qo'lidan kelgan hamma narsani qiladi. Bolaning o'zboshimchaligi, o'jarligi, aggressivligi va har xil tentakliklari,

urishish, to'polon qilishlari vaqtinchalik davr bo'lgani sababli ota-onalar bunga ko'nikishi, bolani jazolash o'rniga uni qo'llab-quvvatlashi kerak. Bolalardagi o'jarlikni qat'iyatlilik bilan almashtirib olmaslik kerak. Qat'iyatlilik yaxshi, chunki bola o'zi xohlagan narsani qiladi va bunda boshqalarga ham quloq soladi, lekin o'jarlik bu o'zi xohlagan narsani qanday yo'l bilan bo'lmasin bajarishni istashdir, bunda tushuntirishlar befoya. Krizis davrida bolaning erkin fikrlari rivojvana boshlaydi, shu sababli ota-onaga unga to'g'ri yo'l ko'rsatib nimaning to'g'ri, nimaning noto'g'ri ekanini asta tushuntirib, uni to'g'ri yo'lga yo'naltira olishi kerak. Yig'lab o'jarlik qilayotgan bolaga ba'zi vaqtida yo'q deyishni ham bilish kerak. Haddan tashqari muloyimlik, hamma narsaga xo'p deyish ham bolaning miyyasida nima qilsam ham ota-onam menga yo'q demas ekan degan fikrni keltirib chiqaradi. Buning natijasida esa bola o'zboshimcha va xohlaganini qildiradigan bo'lib ulg'ayadi. Shu sababli, bolaning bu davrida ular bilan ehtiyoj bo'lib ishlashish darkor. Agar ota-onalar qattiqko'lllikni oshirib yuborsa, bolalar qo'rqaq va erkin fikrga ega bo'lmay qoladi, juda ham ko'ngilchanlik, hamma aytganini qilish ham teskari natija beradi va bola juda erkalanib ketadi. Shuning uchun bu davrda me'yorni saqlay bilish juda katta rol o'ynaydi.

Oilaviy turmushda murosasiz ota-onalar ham uchrab turadilar. Ularning bir-biriga bo'lgan munosabati juda sovuq bo'lib, ko'pincha bir xil muomalaga kela olmaydi. Ota-onaning bir-biriga bo'lgan yomon munosabati, ya'ni oilada har kuni urush-janjal, bir-biriga bo'lgan hurmatsizlik, kelishmovchilik kabilalar bolaga juda katta ta'sir yetkazadi. Oilada shunday tarbiyani ko'rgan bola juda katta siqilish va bosim oqibatida o'z qobig'iga o'ralib qoladi va kelajakda shaxsiy fikriga ega shaxs bo'lishi dargumon. Ular aksar vaqtini ishga, bir-biri bilan urush-janjal qilishga sarflashi sababli ham bolalari ko'pincha e'tiborsiz qoladilar va natijada bolalarida ota-onaga bo'lgan mehr kamaya boshlaydi. Bundan keyin ularning boshqalar bilan o'zaro til topishishi, muloqot qilishi juda qiyin bo'lib, muhitga moslashishi uzoq vaqt ni talab qiladi va ular kam gap bo'lib ulg'aysa, ba'zi bolalarga ota-onasining har kuni janjal qilishi psixologiyasiga shunday ta'sir qiladiki, ular juda ham jahldor bo'lib ulg'ayadi. Bunday bolalardan har narsani kutish mumkin. Sababi oilada mehr ko'rmagan bola boshqalarga ham mehr bera olmaydi. Bolalar dars tayyorlaganda ota-onasi yordam berishini, bayramlarda yonida bo'lishini, ular bilan o'ynashini xohlashadi, lekin ular o'zlarini xohlagan mehr-muhabbatni ota-onalaridan ololmagani sababli ularda har xil bo'shliqlar paydo bo'ladi. Bola bu bo'shliqlarni to'ldirish uchun ota-onasidan emas, balki atrofidagilardan, boshqa odamlardan mehr-muhabbat, e'tibor talab qila boshlaydi. Ko'pincha bunday oila farzandlari noto'g'ri yo'llarga, turli oqimlarga qo'shilish ketadi. Bu oqimlarga qo'shilishining asosiy sababi ularning ruhiy jihatdan sustligidir. Ruhiy jihatdan sust bolalar boshqalarning yaxshi so'zlariga ergashib, ota-onasidan ko'rmagan mehr-muhabbat, e'tiborni o'zgalardan topishga harakat qiladilar va yaxshi gapirgan, unga go'yoki ko'mak berayotgandek ko'rsatib, asta-sekinlik bilan

miyyasini zaharlab, uni egallayotgan yomon niyatli insonlarning makrini sezmaydilar. Shu kabi insonlarning to’riga tushib qolgan bolalar ularga shu darajada ishonib qoladi, hattoki, o’ziga va boshqalarga katta zarar berishi, o’ldirishi ham mumkin. Bu darajaga tushishiga bo’lsa, eng avvalo, ota-onalarning e’tiborsizliklari va oilasida har kuni ko’rsatilayotgan noto’g’ri tarbiyasi oqibatidadir. Vaqt o’tishi bilan bolalarining qiyin ahvolga tushib qolganini bilgan ota-onaning afsus va nadomatlarining hech qanday foydasi yo’q. Shu sababli hamma narsani vaqtida o’ylash kerak. Ota-onalar farzandlarida qandaydir salbiy o’zgarishni sezdimi, demak tezroq buning sababini aniqlashga kirishishlari lozim. Buning uchun xatolikni o’zidan izlashi, qanday, qayerda, nima xato qilganini chuqur o’ylab-o’rganib, o’zlarining xatosini tuzatishga kirishishi, farzandlari bilan alohida shug’ullanib, oilada hamjihatlikni ota-onalar asray turib, bolalarini kimlar bilan do’st bo’lganini, darsga qatnashishini nazorat qilishi, har kuni nimalar qilganini so’rab suhbatlashishi, sirlashishi, u bilan maslahatlashib ma’naviy jihatdan tayyorlab borishi, farzandlari ham bu tartib-tarbiyaga asta-sekin o’rganishi lozim. Ba’zi paytlarda rag’batlantirib, ma’naviy jihatdan bolalarni qo’llab-quvvatlash kerak, ammo haddan tashqari oshirib yuborish yaxshi natija bermaydi.

Xulosa qilib aytganda, oilada farzand tarbiyasi ota-onaning bir-biriga bo’lgan munosabati, hurmat-izzati, bolalariga ko’rsatayotgan mehr-muhabbati, oiladagi samimiylilik, to’g’riso’zlik, insoniylik kabi hislatlari bolalarning tarbiyasida juda katta ahamiyatga ega. Dono xalqimiz «Qush uyasida ko’rganini qiladi», -deganlaridek bolalar ham ota-onalaridan ko’rgan tarbiyani hayoti davomida takrorlashadi. Bundan tashqari bolalarini yaxshi tarbiyalash uchun pedagogik usullardan, jazolash va rag’batlantirish usullaridan foydalanishlari bir qancha ahamiyatga ega. Ota-onalar eng birinchi bilimli va tarbiyalisi bo’lishi, oilasida totuvlik va hamjihatlikni shakllantira olishi kerak, shundagina ular bolalariga ham to’g’ri tarbiya bera oladilar.

Adabiyotlar:

1. A.S.Nauruzbaeva, R.O.Nurjanova. Z.K.Naimova, A.A.Embergenova «Ta’rbiya isleri metodikasi» Tashkent-2019 y
2. A.Dosxodjaeva «Shan’araq pedagogikasi» Tashkent-2021y
3. O.Hasanboyeva, D.Xoliqov, SH.K.Toshpo’latova, N.SH.Nurmatova va boshqalar «Oila pedagogikasi» Toshkent-«ALOQACHI»-2007 y
4. <http://sof.uz>